



**HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDA BADIY ADABIYOT, KINO, TEATR
VA TASVIRIY SANOATNI AHAMIYATI**

Mamadjanov Alisher Muratovich

Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

No'monov Ilhomjon Boxodirjon o'g'li

Islomov jaxongir shukurjon o'g'li

Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

Oldingi mashg'ulotlarimizda biz yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ba'zi shakllarini ko'rib chiqdik. Bular: Ma'ruza, mavzuviy kechalar, nazariy konferensiyalar, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar, xalqimiz mehnat va jangovar shon-shuhrati joylariga sayohatlar uyushtirish. Qay bir harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shaklini tanlamaylik, ular hammasi bitta maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi, ya'ni yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilish, armiyaga muhabbat, Vatan himoyasiga doim tayyor turishga tayyorlash maqsadiga aniq yo'l ko'rsatishdan iboratdir.

Ushbu ma'ruzada biz yoshlarning Qurolli Kuchlar safidagi xizmatida, armiyaga muhabbat, Vatanni himoya qilish uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarbiyalashda badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'atning ahamiyati to'g'risida gapirib o'tmoqchimiz.

"Buyuk davlat poydevorini qurishda, dunyo miqyosida tegishli o'rinni egallashimizda ajdodlarimiz bo'lgan Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Buxoriy, At-Termiziyy, Amir Temur, Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Boburlarning bebeho meroslari bizga boshimizni baland ko'tarib yurishga majbur etadi ". (I.A.Karimov Mirzo Ulug'bekning 600 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalaridagi nutqi 15.10. 1994yil)

Bu odamlar kimlar, nima uchun biz ularni buyuk deb ataymiz, Vatanimiz uchun ular nimalar qilganlar bularni biz badiiy, tarixiy adabiyotlarni o'rgansak, kino, teatrlarga borib, tasviriy san'at – rassomchilik, grafika, tarixiy va xotira joylari muzeylariga borsak bilib olishimish mumkin.

Yoshlarda Qurolli Kuchlarga xizmat qilish, armiyaga muhabbat, Vatan himoyasiga doim tayyor bo'lish uchun muhim bo'lgan sifatlarni tarbiyalashda badiiy adabiyot, kino, teatr va tasviriy san'atning roli.

Ma'ruzamizda uchraydigan asosiy terminlar mazmunini tushuntirib o'tamiz;

Adabiyot – yozma asarlar umumiyligi yig'indisi;

Badiiy adabiyot – haqiqiy xodisalarni obrazlar yordamida tasvirlash (sheriyat, proza, drama);

San'at – haqiqatni badiiy obrazlarda tasvirlab berish, ijodiy aks ettirish;

Tasviriy san'at – badiiy obrazlarni tekislik va fazoda ifoda etuvchi san'atning umumiyligi (rassomlik, grafika, haykaltaroshlik, arxitektura);

Haykaltaroshlik (skulptura) – kesib, o'yib, kuyma yo'li bilan hajmli badiiy asarlar yaratish san'ati;

Teatr – dramatik asarlarni sahnada ijro etish san'ati;

Spektakl – teatrlashtirilgan tomosha.



Shunday qilib umuman adabiyotning va xususan badiiy adabiyotning o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda roli qanday?

Adabiyotlar o'quvchilarni Vatanni himoya qilishning ming yillik an'analari haqida o'ylashga majbur etadi, Vatanning mustaqilligi uchun tarixiy janglar qahramonlari bilan faxrlanish hissini uyg'otadi. Xalqning buyukligini ko'rsatadi, Vatanni himoya qilishga chorlaydi, dushmanga nafrat uyg'otadi. Adabiyot o'quvchilarga Vatan uchun kurash ahamiyatini oolib beradi, yoshlarga butun yuragi bilan bu kurash chiroyi va olivjanobligini oolib beradi. Malika To'maris, cho'pon Shiroq, Spitamen, Muqanna, A.Temur, Ulug'bek, Bobur, S.Raximov, L.Alieva, K.Suyunova obrazlari o'quvchi yoshlar uchun ma'naviy namuna hisoblanadi. Xalqning o'z mustaqilligi uchun kurashiga bag'ishlangan adabiy asarlar o'quvchilarga urushlarning yuzaga kelishi sabablarini tushunish, O'zbekiston xalqlarining o'z mustaqilligi uchun qahramonona jasoratlari ma'naviy sabablarining chuqur asoslarini tushunishga yordam beradi. Urush haqidagi bizning asarlarimiz qahramonlar ma'naviy dunyosini og'ir sinovlarda oolib beradi, o'quvchilar ongida Vatan va butun dunyoda tinchlik himoyachilari namunasini yaratib va o'rgatib qolishiga intiladi. (Taqlid etish uchun misollar keltiring)

IQTIBOSLAR:

1. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 7-11.
2. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. Current research journal of pedagogics, 2(06), 85-89.
3. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.
4. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). Science and innovation, 1(B2), 295-299.
5. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
7. Boxodirjon, X. (2022). ODAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 108-114.
8. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. (2022). ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 104-107.



9. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. MATERIALLARI TO 'PLAMI, 112.
10. Makhsudov, R. A. (2020). Comparative analysis of the physical performance of senior persons with regulatory requirements. Fan-Sports, (3), 59.
11. Махсудов, Р. А. (2020). УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ФАНИДАН НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 2).
12. Махсудов, Р. А. (2020). СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ С НОРМАТИВНЫМИ ТРЕБОВАНИЯМИ. Fan-Sportga, (3), 59-60.
13. Махсудов, Р. (2019). Оценка двигательной подготовленности старшеклассников по выполнения учебных нормативов по физическому воспитанию в общеобразовательных школах. Наука сегодня: проблемы и перспективы развития, 94.
14. Makhsudov, R. A. (2019). IMPROVEMENT OF THEORETICAL KNOWLEDGE OF HIGH SCHOOL STUDENTS IN THE SUBJECT OF" PHYSICAL CULTURE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
15. Махсудов, Р. (2019). Мониторинг физического развития юношей старших классов общеобразовательных школ. Наука сегодня: опыт, традиции, инновации, 47.
- Мамаджанов, А. М., & Султонов, С. (2023). ПРАВО И ЕГО РОЛЬ В ГОСУДАРСТВЕННОМ СТРОИТЕЛЬСТВЕ. ВОПРОСЫ ЗАЩИТЫ ГОСУДАРСТВА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 330-337.
- Мамаджанов, А. М., & Султонов, С. (2023). ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ И ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ЗАКОНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «ОБ ОБОРОНЕ». O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 459-465.
- Otakoziyevna, G. F., & Mamazul, A. M. (2022). THE IMPORTANT ROLE OF EDUCATION IN EDUCATION OF YOUTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 381-383.
- Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MUZEYLARNING MUXIM AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 166-168.